

## XALQARO HUQUQ VA UNING NIZOLARINI HAL QILISH, TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI

**Rustamova Shahlo Suxrob qizi**

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14225970>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Xalqaro huquq tushunchasi, xalqaro huquqning global barqarorlikni ta'minlashdagi siyosiy o'rni, hamda xalqaro va milliy huquqning o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqolada Xalqaro huquqning tinchlikni saqlashdagi asosiy printsiplari Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi xalqaro huquqiy mexanizmlar, xalqaro tashkilotlarning ayni shu sohadagi olib borayotgan faoliyati, bugungi kundagi xalqaro nizolar va ularning sabablari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquq, davlatlararo tizim, suveren tenglik xalqaro nizolar, baynalminal ong, milliy huquq.

## INTERNATIONAL LAW AND ITS ROLE IN CONFLICT RESOLUTION, PEACE AND STABILITY

**Abstract.** This article analyzes the concept of international law, the political role of international law in ensuring global stability, and the relationship between international and national law. In addition, the article analyzes the main principles of international law in maintaining peace, international legal mechanisms for ensuring peace and security, the activities of international organizations in this field, today's international conflicts and their causes.

**Key words:** international law, interstate system, sovereign equality, international disputes, international consciousness, national law.

## МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО И ЕГО РОЛЬ В РАЗРЕШЕНИИ КОНФЛИКТОВ, МИРЕ И СТАБИЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В статье анализируются понятие международного права, политическая роль международного права в обеспечении глобальной стабильности, соотношение международного и национального права. Кроме того, в статье анализируются основные принципы международного права в поддержании мира, международно-правовые механизмы обеспечения мира и безопасности, деятельность международных организаций в этой сфере, современные международные конфликты и их причины.

**Ключевые слова:** международное право, межгосударственная система, суверенное равенство, международные споры, международное сознание, национальное право.

Mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va global barqarorlikni, ta'minlashda xalqaro huquq asosiy o'rin tutadi. U davlatlarga tashqi siyosatida va bir-biri bilan o'zaro aloqalarida yo'l ko'rsatish norma va printsiplarini belgilaydi. Mamlakatlarning o'zaro bog'liqligi ortib borayotgani va global muammolarning haqiqiylashuvi sharoitida xalqaro huquq tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning eng muhim vositasiga aylanib bormoqda. Xalqaro huquq uning mohiyatini belgilovchi va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Davlatlarning suveren tengligi, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, kuch ishlatish tahdididan yoki foydalanishdan voz kechish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqlarning o'zini o'zi boshqarishi va inson huquqlarini himoya qilish shular jumlasidandir. Ushbu tamoyillar BMT Nizomi va boshqa fundamental xalqaro shartnomalarda ko'zda tutilgan bo'lib, zamonaviy jahon tartibining asosini tashkil etadi.

**Suveren tenglik** Barcha davlatlar hajmi, fuqaroligi va siyosiy tizimidan qat'i nazar, xalqaro huquq bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarida tengdirlar.

**Aralashuvga yo'l qo'yilmaslik** Davlatlar bir-birining ichki ishlariga aralashishdan tiyilib, hududiy yaxlitligini hurmat qilishi kerak.

**Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish** Davlatlar o'zlarining xalqaro nizolarini tinch yo'llar bilan, kuch ishlatmasdan hal qilish majburiyatiga ega.

XXI asr kishilik jamiyati hayotining baynalmilallashuvidek tarixiy qonuniyatning kuchayishi bilan ajralib turadi. Davlat chegaralarining mavjudligi va har xilligiga qaramay, xalqaro munosabatlarda mamlakatlarning o'zaro aloqalari rivojlanib bormoqda. Xalqaro munosabatlar nafaqat davlatlar, balki har bir inson hayotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro munosabatlar tizimi huquqning muayyan sohasi — xalqaro huquq bilan tartibga solinadi.

U davlatlarning, jismoniy va yuridik shaxslarning turli-tuman aloqalariga u yoki bu darajada ta'sir qiladi. Xalqaro huquqning milliy huquqqa va davlat ichki hayotiga ham ta'siri kuchaymoqda. Shu bois bugungi kunda huquqni bilish nafaqat xalqaro munosabatlar bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxassislar, balki iqtisodchilar va tadbirkorlar, hatto oddiy fuqarolar uchun ham ahamiyatli bo'lib bormoqda. Xalqaro huquq normalari asta-sekin milliy huquqiy tizimning bir qismiga aylanib bormoqda. Uning asoslarini bilish jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini mamlakat ichida himoya qilishlari uchun ham zarurdir. Buning sabablari haqida mashhur italyan professori B. Konforti shunday yozadi: «Xalqaro huquqning mazmuni shu qadar kengaydiki, uni umumiy kurs darajasida yoritish mumkin emas<sup>1</sup>». Bugun hatto xalqaro yurist ham xalqaro huquqning hamma sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'la olmaydi.

Shuning uchun bizning vazifamiz milliy huquq sohasi mutaxassislarning xalqaro huquq asoslarini bilishlari uchun ularga ko'maklashish hisoblanadi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro huquqning har bir sohasini mufassal bilish nazariy jihatdan muhim hisoblanadi. .

Shu bois ushbu mavzuda xalqaro huquqning umumiy va maxsus qismlariga alohida e'tibor berildi. «Umumiy qism» xalqaro huquqning yuridik tabiatini yoritishga, uning normalarini yaratish va amalga oshirish mexanizmiga, xalqaro va milliy huquqning o'zaro aloqasi kabi masalalarga bag'ishlangan. Xalqaro huquqning umumiy mazmunini tashkil etuvchi va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy prinsiplaiga alohida e'tibor berildi. «Davlatlarning xalqaro huquqiy subyektligi» instituti mazkur muammolar bilan chambarchas bog'liq ravishda ko'rib chiqildi.

Xalqaro huquqning umumiy o'ziga xos tabiatini bilib olgach, uning u yoki bu sohasini qiyinchiliksiz o'zlashtirish mumkin, umumiy prinsiplar bilan sohaga oid normalaming o'zaro aloqasini aniqlash ancha oson kechadi. Shu bois «Maxsus qism»da xalqaro huquqning asosiy sohalariga alohida e'tibor qaratildi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Conforti B. International Law the Role of Domestic Legal Systems. Dordrecht, 1993. P. 125.

**Davlatlararo tizim va xalqaro huquq.** Xalqaro huquq — davlatlararo tizimda amaldagi huquqning alohida mustaqil tizimi. Avvalambor, xalqaro huquq davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Davlatlararo tizimning tarkibiy qismlari quyidagilardir: davlatlar, xalqlar va millatlar, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, xalqaro konferensiyalar, davlatlardagi turli nohukumat birlashmalari, xalqaro organlar (xalqaro komissiyalar, xalqaro sudlar, xalqaro arbitrajlar), xalqaro-huquqiy normalar. Davlatlararo tizimning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Davlatlararo tizim ichki davlat tizimidan farq qiladi. Davlatlararo tizimda oliy hokimiyat yo'q. Bundan tashqari, ichki davlat tizimidagi kabi qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati organlar ham yo'q. Bu holat esa davlatlararo tizimning o'ziga xosligini belgilab beradi. Davlatlararo tizimning normativ asosini xalqaro huquq normalari tashkil etadi. Xalqaro huquq davlatlararo tizim o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy vositadir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, davlatlararo tizim subyektlari o'rtasidagi munosabatlar faqat xalqaro huquq normalari bilangina tartibga solinmaydi. Bu munosabatlar xalqaro siyosiy va axloq normalari, xulq-atvor qoidalari, odat normalari, xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiya — tavsiyalari bilan ham tartibga solinadi. Xalqaro huquq va davlat suvereniteti. Olimlar, davlat va siyosat arboblari o'rtasida xalqaro huquq davlatlar mustaqilligini cheklab qo'yadi, degan qarash keng tarqalgan. Ularning fikricha, har qanday shartnomaning tuzilishi oxir-oqibatda shunga olib keladi. Bunday fikr, odatda, mustaqillikni mutlaq harakat erkinligi sifatida tushunishga asoslangan bo'ladi. Ayni paytda, «mutlaq» mustaqillikning mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki har doim bir davlatning mustaqilligi boshqalarining mustaqilligi bilan cheklangan bo'ladi. Xalqaro huquq davlatlarning suverenitetini emas, balki ularning harakat erkinligini muayyan tartibga solib turadi, xolos.

Xalqaro huquqning imperativ normalari ham mavjud bo'lib, bular shunday normalarki, ular xalqaro hamjamiyat tonidan yaratiladi va davlatlar, hatto o'zaro kelishuv bo'yicha ham, bunday normalardan chekina olmaydi. xorijiy ilmiy adabiyotlarda bu haqda ikkita yo'nalish mavjud.

Birinchisi, siyosatning ahamiyatini oshirib, ikkinchisi kamaytirib ko'rsatadi. «XX asr oxiri huquqshunoslari xalqaro huquqning siyosiy tabiatini rad etishdan ko'ra u bilan bog'liq bo'lgan oqibatlar bilan hisoblashishsa yaxshiroq bo'lardi<sup>2</sup>» Buning uchun xalqaro huquq nazariyasini real siyosatga yaqinlashtirmoq kerak. Darhaqiqat, xalqaro huquq nazariyasining real xalqaro munosabatlar poydevoriga asoslanishini rad etib bo'lmaydi. Davlatlar xalqaro huquqning birlamchi subyektlaridir. Xalqaro huquq nazariyasida davlatlarning quyidagi asosiy huquqlari qayd etiladi:

- 1) suveren tenglik;
- 2) mustaqillik va o'zining barcha qonuniy huquqlarini ro'yobga chiqarish;
- 3) o'z hududi va shu hududdagi barcha shaxslar va mol-mulk ustidan (xalqaro huquqda tan olingan immunitetlarga amal qilingan holda) o'z yurisdiksiyasini joriy etish;
- 4) boshqa ichki davlatlar bilan teng huquqlilik;
- 5) tamomila o'zining ichki vakolatlariga kiradigan masalalami hal etishda o'z mustaqilligini muhofazalash;
- 6) xalqaro hamjamiyatning boshqa a'zolari bilan hamkorlik qilish;

---

<sup>2</sup> The Structure and Process of International Law. P. 204

7) qurolli hujumga qarshi individual yoki jam oa tarzida o'zini o'zi mudofaa qilish.

Xalqaro huquqning asosiy maqsadi davlatlar o'rtasidagi nizolarni oldini olish va ularni tinch yo'l bilan hal qilish orqali global tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Bunda xalqaro huquqiy mexanizmlar katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar xalqaro tashkilotlar, shartnomalar, huquqiy normalar va protseduralardan tashkil topgan bo'lib, ular turli xil nizolarni hal qilish va tinchlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro huquqning tinchlikni saqlashdagi asosiy printsiplari, Suverenitet va hududiy yaxlitlik printsiplari, kuch ishlatmaslik printsiplari.

Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro majburiyatlar, BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashda eng muhim xalqaro tashkilot hisoblanadi. BMTning asosiy maqsadi dunyoda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni mustahkamlash va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishdir. BMTning bu boradagi asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat: BMT Xavfsizlik Kengashi, BMT tinchlikni saqlash missiyalari, Yevropa Ittifoqi (YI), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Yevropa Kengashi, Xalqaro shartnomalar va huquqiy normalar, Xalqaro shartnomalar, BMT Nizomi, Jeneva konvensiyalari, Qurolsizlanish va qurol tarqalishini nazorat qilish bo'yicha shartnomalar, Xalqaro huquqiy normalar va odatlar, Jus cogens normalari, Umumiy huquqiy prinsiplar.

**Xalqaro huquqiy mexanizmlarning amaliyotda qo'llanishi, Xalqaro nizolarni hal qilishi.** Xalqaro huquqiy mexanizmlar xalqaro nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mexanizmlar davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun turli xil usullarni taklif etadi. Ba'zi muhim usullar quyidagilardan iborat:

Muzokaralar va vositachilik, hakamlik sudi va xalqaro sudlar, tinchlikni saqlash va insonparvarlik yordami, tinchlikni saqlash operatsiyalari, insonparvarlik yordami

**Xalqaro nizolarni hal etishda xalqaro tashkilotlarning o'rni** Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish huquqi — davlatlararo nizolarni tinchlik vositalari bilan barqarorlashtirish tartibini belgilab beradigan prinsiplar va normalar majmuyidir. Xalqaro huquqning bu mustaqil sohasi negizida nizolarni tinch yo'l bilan hal etish printsiplari yotadi. Bu prinsip nizolarni faqatgina tinch yo'l bilan hal etish vositalari bilan barqarorlashtirish majburiyatini yuklaydi. Yana bir prinsip mavjud bo'lib, bu nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalarini erkin tanlash prinsipidir. Xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Konvensiya 1899-yili Gaaga tinchlik konferensiyasida qabul qilingan<sup>3</sup>. Shundan buyon mazkur muammoga bag'ishlangan qator xalqaro-huquqiy aktlar qabul qilindi. BMT Ustavida mazkur masalaga taalluqli alohida bob mavjud. BMT Bosh Assambleyasi bu borada bir qancha rezolyutsiyalar qabul qilgan va ular orasida 1982-yilgi Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida Manila deklaratsiyasi alohida ahamiyatga molik. qaratilgan. «Nizo» bilan «vaziyat» iboralari o'rtasidagi tafovut yuridik ahamiyatga ega. Nizo BMT Xavfsizlik Kengashida ko'rib chiqilayotganda Kengashning nizoda ishtirok etayotgan a'zosi ovoz berishdan tiyilishga majbur<sup>4</sup>, «vaziyat» ko'rib chiqilayotganda esa bunday majburiyat talab etilmaydi.

<sup>3</sup> Док. ООН E/CN.4/2000/65 от 15 февраля 2000 г. — С. 63—65

<sup>4</sup> Карлов Ю.Е. Религия и международное право/ Отв ред Ю М Колосов, Э.С. Кривчикова. — М., 2001. — С. 503; Борисов КГ. Международное право религиозных конфессий мирового сообщества. — М., 2001. — С. 110.

Tinchlikka tahdid soluvchi nizolarga nisbatan BMTning Xavfsizlik Kengashi alohida huquqlardan foydalanish imkoniga ega. U bunday nizolam ing har qandayini o 'z tashabbusi asosida o'rganib chiqishi, uni barqarorlashtirish yuzasidan tegishli protseduralarni tavsiya etishi, shuningdek, nizoni hal etish shartlarini taklif qilishi mumkin. Bundan tashqari, BMT Ustavida nizolaming yana ikki xil toifasi ko'rsatilgan. Bularga yuridik va boshqa nizolar kiradi. Yuridik nizolarning ajratib ko'rsatilishi nisbiy ahamiyatga ega. Xalqaro sud Statutida yuridik nizolar sirasiga, awalo, shartnomani talqin etishga, xalqaro huquqqa tegishli har qanday masalaga, xalqaro majburiyatlarning buzilganligini ko'rsatuvchi faktlar mavjudligiga, majburiyatni buzganlik uchun undirib olinadigan to'lovlarga taalluqli nizolar kiritilgan. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlatlar siyosiy, ya'ni noyuridik nizolar, ayniqsa, davlatning muhim manfaatlariga daxldor nizolarni uchinchi bir tomonga ko'rib chiqish uchun topshirmasdan, ikki tomonlama asosda hal etishni afzal biladi. Xalqaro tashkilotlarning nizolarni hal etishdagi o'rni ustuvor darajada siyosiy mazmun kasb etsa-da, baribir ishtirokchilarning xalqaro huquqqa muvofiq ravishda harakat qilishi talab etiladi.

Siyosiy protsedura, asosan, tomonlarning pozitsiyalarini yaqinlashtirish va ular o'rtasida kelishuvga erishish maqsadlariga qaratiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotida Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi nizolashayotgan davlatlarni nizoni hal etish borasida har qanday tinch yo'l bilan hal etish vositasidan foydalanishga d a' vat etishi mumkin. BMTga a'zo bo'lmagan davlat o'zi ishtirokchi tomon hisoblangan har qanday nizo haqida BMT Bosh Assambleyaga yoki Xavfsizlik Kengashiga m a'lum qilishi mumkin. Har qanday nizo yoki ixtilofga olib kelishi yoxud nizo qo'zg'ashi m um kin bo'lgan vaziyatlar tinchlik-osoyshtalikka tahdid solishda davom etishi mumkin yoki yo'qligini aniqlash maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashi ularni o'rganib chiqishi mumkin. BMTning har qanday a'zosi ana shunday nizo yoxud vaziyat haqida Xavfsizlik Kengashiga ma'lum qilish huquqiga ega.

Bu kabi holatlarda Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) 1992-yilda Sulh va arbitraj to'g'risidagi konvensiyani qabul qilgan bo'lib, unda YXHT doirasida Sulh va arbitraj palatasini ta'sis etish ko'zda tutilgan. Palataga murojaat qilishdan oldin, nizolashayotgan tom onlar boshqa vositalar, birinchi navbatda, muzokaralardan foydalanishlari darkor<sup>5</sup>. Bular natija bermagan taqdirda tomonlardan har biri nizoni shu munosabat bilan tuziladigan sulh komissiyasi ixtiyoriga topshirishi mumkin. Bunda boshqa tomonning, agar tegishli nizo o'zining hududiy yaxlitligiga daxldor ekani to'g'risida bayonot bermasa, roziligi talab qilinmaydi. Bu boradagi ishlarning natijasi xalqaro nizoni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi takliflardan iboratdir. Agar muayyan tomonlardan biri ana shu takliflarga rozi bo'lmasa, ular YXHTning Vazirlar kengashiga topshiriladi. Arbitraj yurisdiksiyasi fakultativ mazmunga ega. Nizolarni uning ixtiyoriga topshirish uchun tom onlarning roziligi bo'lishi kerak. Yevropa Kengashi 1957-yilda Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini qabul qilgan. Konvensiyada, Xalqaro sud Statutida bo'lganidek, nizolar yuridik va boshqa xil nizolarga ajratilgan. Konvensiyadagi tom onlar yuridik nizolarga nisbatan sudning majburiy yurisdiksiyasini qabul qilgan.

<sup>5</sup> Мартенс Ф. Современное международное право цивилизованных народов. Т.2. Спб.. 1883. С. 99.



Buning natijasi o'laroq, tomonlarning har biri boshqasining rozilgisiz ham nizoni sudga topshirishi mumkin. Noyuridik nizolar uchun esa sulh (murosa) protseduralari va arbitraj ko'zda tutilgan. Murosa vositalari suveren davlatlarning o'zaro munosabatlarida yuzaga kelgan nizolar va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan barqarorlashtirishda muhim o'rin tutadi. Bu vositalarning mazmun-mohiyatiga kelsak, bunda nizo tomonlar o'rtasidagi bevosita muloqot va bitimlar yordamida barham topadi.

Muzokaralar tomonlarning o'zaro ma'qul bir bitimga erishish maqsadiga qaratilgan bevosita aloqalarni anglatadi. Shartnomani amaliyotida «nizolar diplomatik kanallari bo'yicha hal etiladi» degan qoida qabul qilingan. Muzokaralar olib borish alohida tashkiliy tayyorgarlikni talab etmaydi, bu jarayon davomida nafaqat siyosiy, balki yuridik masalalar ham uchinchi tomon aralashuvsiz hal etilishi mumkin. Muzokaralar ikki tomonlarni, shuningdek, ko'p tomonlarni ham bo'lishi mumkin. Har qanday vaziyatda ham muzokaralar vijdonan olib borilishi zarur.

Muzokaralar umumiy qoida tariqasida nizolarni hal etishning boshqa xil vositalaridan oldin bo'lib o'tadi. Maslahatlashuvlar (konsultatsiyalar) — muzokaralarning bir turi bo'lib, ikki xil ko'rinishda bo'ladi: — alohida rasmiyatchiliklarsiz ayni bir vaqtdagi muloqot; — muayyan bitim ijrosini nazorat etish yoki davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni umumiy monitoring qilish maqsadida amalga oshiriladigan muntazam bir shakldagi muloqot. Ko'pincha maslahatlashuvlar rasmiy muzokaralardan oldin bo'lib o'tadi. Bir qator xalqaro shartnomalarda kelishmovchiliklarni maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan barqarorlashtirish ko'zda tutilgan. Xayrli xizmatlar uchinchi tomonning nizolashayotgan tomonlar o'rtasida bevosita aloqa o'rnatish borasidagi faoliyatidir. Xayrli xizmatlar davlat, uning mansabdor shaxsi, xalqaro organ yoki tashkilot, ularning mansabdor shaxslari, nufuzli xususiy shaxs tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Xayrli xizmat ko'rsatish uchun nizoning barcha ishtirokchilaridan rozilik olinishi kerak. Ba'zi hollarda tomonlar uchinchi tomonning muzokaralarda bevosita ishtirok etishi va imkon qadar kengroq vakolatlarga ega bo'lishiga rozilik bildiradi. Bunday hollarda xayrli xizmatlar vositachilikka aylanishi ham mumkin. Masalan, 1962-yilgi Karib krizisi davrida SSSR BMT Bosh kotibining xayrli xizmatlariga rozilik bildirgan va bu AQSH bilan muzokaralar boshlashga ko'mak bergan, natijada esa yirik davlatlar o'rtasida yadro mojarosi yuzaga kelishi xavfiga barham berilgan<sup>6</sup>.

Vositachilik — nizoni hal etish yo'llaridan biri bo'lib, bunda uchinchi tomon nizolashayotgan tomonlarni o'zaro da'volar bo'yicha kelishtirish va ularga ma'qul keladigan takliflarini kiritish uchun muzokaralarda ishtirok etadi. 1899 va 1907-yillardagi xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyalarida belgilanishicha, vositachining roli tomonlarni nizoli da'volar yuzasidan kelishtirish va ularning bir-biriga bo'lgan qarama-qarshilik kayfiyatini tarqatib yuborishdan iboratdir. Vositachi vazifasini davlat ham, xalqaro organlar va tashkilotlar ham, shuningdek, alohida shaxslar ham bajarishi mumkin.

Xalqaro huquqning shakllanishi va amalga oshirilishida BMT, Yevropa Kengashi, Jahon savdo tashkiloti va boshqalar kabi xalqaro tashkilotlar asosiy rol o'ynaydi. Ular yangi shartnomalarni kelishish va qabul qilish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi, mavjud majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qiladi.

<sup>6</sup> Карлов Ю.Е. Религия и международное право /Отв.ред. Ю.М. Колосов, Э.С. Кривчикова. — М., 2001. С. 499—501.

Xalqaro huquqning global muammolarni hal qilishga ta'siri. Iqlim o'zgarishi, pandemiya, savdo va moliyaviy inqirozlarning tarqalishi, xalqaro terrorizm va inson huquqlarining buzilishi kabi zamonaviy global qiyinchiliklar xalqaro huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Xalqaro huquq ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa aktyorlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarining huquqiy asoslarini ta'minlaydi. Unda xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali global xavf va tahdidlarni boshqarish imkoniyatini yaratuvchi va'dalar, standartlar va mexanizmlar joriy etiladi.

**Iqlim & atrof-muhit.** Parij iqlim shartnomasi kabi xalqaro shartnomalar is gazi chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish uchun majburiy shart-sharoit yaratadi.

Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha global sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi.

**Sog'liqni saqlash** JSST xalqaro sog'liqni saqlash qoidalari va yuqumli kasalliklar to'g'risidagi shartnomalar hukumatlarning pandemiyalarning oldini olish va uni qanday to'xtatishlari mumkinligini boshqaradi, bu esa sog'liq uchun tahdidlarga global javobni yanada samarali ta'minlaydi

**Iqtisodiyot va moliya.** WTO, IMF va boshqa institutlar qoidalari xalqaro savdo va moliya qoidalarini yaratadi, iqtisodiy barqarorlik va adolatli rivojlanishga hissa qo'shadi

Xalqaro va milliy huquq o'rtasidagi bog'liqlik

Xalqaro va milliy huquq bir-birini to'ldiruvchi va ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq tizimlardir.

Davlatlar o'z xohishi bilan xalqaro huquqiy majburiyatlarni o'z zimmasiga oladilar, so'ngra ichki qonunchilikda amalga oshiradilar. Shu bilan birga, milliy huquq normalari xalqaro huquqda ham o'z aksini topishga, masalan, madaniyatli xalqlar tomonidan e'tirof etilgan urf-odatlar va umumiy prinsiplar orqali namoyon bo'ladi. Shunday qilib, xalqaro va ichki huquqning uyg'unlashuvi butun huquq tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi va qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy shartidir.

Xalqaro majburiyatlar

O'zaro bog'liqlik va global qiyinchiliklarning o'sib borishi sharoitida xalqaro munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquq tobora muhim rol o'ynaydi. Mavjud xalqaro institutlar yanada mustahkamlanishi va yangilari paydo bo'lishi kutilmoqda, bu esa davlatlarni xalqaro majburiyatlarni bajarishga nazorat qilish va majbur qilish uchun yanada ko'proq vakolatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish, axborot xavfsizligi, kosmik faoliyat va boshqalar kabi sohalar qatorida xalqaro huquqning mavzu sohasini kengaytirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, xalqaro va milliy huquqni uyg'unlashtirish jarayoni ham davom ettiriladi, bu esa ularning o'zaro ta'sir samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, xalqaro huquq global xavflarni boshqarish va tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning tobora universal va samarali vositasiga aylanadi.

## REFERENCES

1. Conforti B. International Law the Role of Domestic Legal Systems. Dordrecht, 1993. P. 125.
2. Док. ООН E/CN.4/2000/65 от 15 февраля 2000 г.

3. Карлов Ю.Е. Религия и международное право/ Отв ред Ю М Колосов, Э.С. Кривчикова. — М., 2001. — С. 503; Борисов КГ. Международное право религиозных конфессий мирового сообщества
4. Карлов Ю.Е. Религия и международное право /Отв.ред. Ю.М. Колосов, Э.С. Кривчикова. — М., 2001. С
5. The Structure and Process of International Law. P
6. The anatomy of human rights in Israel: Constitutional rhetoric and state practice- Assaf Meydani
7. O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A.X. Saidov. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
8. Rtveladze E.V., Saidov A.X. O'zbekiston hududida eng qadimgi davrda diplomatik munosabatlarning rivojlanishi. — T, 2001; Саpсeнбaев М.А. Международно-правовые вопросы в истории Казахстана и Средней Азии (с XV века по настоящее время). — Алма-ата, 1991
9. Xalqaro huquq; mavzu, materiallar va assosiy-Philip Alston va Ryan Googman
10. “Xalqaro huquq va islom: O’zgarishlar va istiqbollari”-D.W.Greig
11. “Xalqaro huquq: zarur hamkorliklar va maslahatlar”-Anne Peters
12. “Xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar”-David J. Bederman